

ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС

Мадияр Палванназирович Машарипов, Гульчехра Зоировна Абдусаматова
Профи университет Информационных технологий и старших преподавателей
кафедры социальных наук

INTEGRATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL PROCESS

Madiyar Palvannazovich Masharipov, Gulchehra Zoirovna Abdusamatova
Profi University of Information Technologies and Senior Teachers of the
Department of Social Sciences

TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI

Masharipov Madiyo Palvannazirovich, Gulchehra Zoirovna Abdusamatova
Profi university "Axborot texnologiyalari va ijtimoy fanlar" kafedrasida katta
o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar integratsiya orqali oliy ta'lim tizimida ta'lim sifat va samaradorligini oshirish usullari yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar: raqamli texnologiya (RT), To'ldirilgan borliq (AR), Virtual borliq (VR), электрон таълим учун платформа (LMS- Learning Management System)

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы повышения качества и эффективности обучения в системе высшего образования за счет интеграции цифровых технологий в образовательный процесс.

Ключевая словарь: цифровые технологии (RT), дополненная реальность (AR), виртуальная реальность (VR), платформа для электронного обучения (LMS-Система управления обучением)

Abstract: This article discusses ways to improve the quality and effectiveness of education in the higher education system through the integration of digital technologies into the educational process.

Keywords: digital technologies (RT), augmented reality (AR), virtual reality (VR), e-learning platform (LMS-Learning Management System)

Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini samarali va interaktiv qilishda muhim ro'l o'ynaydi. Raqamli dasturiy mahsulotlar o'quvchilarga turli masalalarini vizual tarzda ko'rish, modellashtirish va yechish qiladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri bo'lib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Zamonaviy texnologiyalar,

internetning keng tarqalishi va raqamli resurslarning mavjudligi ta'lim jarayoniga yangi usullar, vositalar va uslublarni qo'llash imkonini yaratdi. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'rni, ularning afzalliklari va ta'lim jarayoniga qanday integratsiya qilinishi haqida ma'lumotlar keltirilgan¹.

Innovatsion texnologiyalarning ta'lim tizimidagi ahamiyati

Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytirish va bilim olish jarayonini osonlashtirishga qaratilgan. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali o'quvchilar mavzularni istagan vaqtda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, multimedia resurslari (videolar, grafiklar, animatsiyalar) orqali murakkab mavzularni vizual tarzda tushuntirish imkoniyati mavjud. Bu o'quvchilarning tushunishini osonlashtiradi va o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi interaktivlik hamda innovatsion faoliyatni yuzaga keltiradi.²

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari

Ta'lim jarayonida LMS

• Onlayn ta'lim platformalari orqali hozirgi kunda Moodle, Coursera, Udemiy kabi platformalar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirish imkoniyatiga ega. Bu platformalar o'quv materiallarini internet orqali taqdim etib, o'quvchilarga bilim olishda erkinlik beradi.

- Elektron darsliklar va raqamli resurslar.
- Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR). Bu
- Gibridd ta'lim.

¹ SH.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston"-2017 yil.14 yanvar.104 bet.

SH.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston"2017 486 bet.

² Adashboyev SH "Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar" .T.:2023yil O'quv uslubiy majmua.

Innovatsion texnologiyalarning ta'limga integratsiyasining afzalliklari va qiyinchiliklari

Hozir yoshlar qiziqishlari va talablari asosida ta'lim jarayonini primitiv darslardan kreativ ta'lim jarayonini tashkil etishda online interaktiv saytlardan maqsadli foydalanish uchun <http://canva.com>, http://adobe_sparce.com, <http://renderforest.com>, <http://piktochart.com> va boshqa ko'plab saytlarni misol keltirishimiz mumkin bo'ladi.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga ko'plab ijobiy o'zgarishlar olib kelsa-da, ularni joriy etishda ayrim qiyinchiliklar ham mavjud.

Afzalliklari:

Interaktivlik. O'quvchilar dars jarayoniga faol jalb qilinib, o'qituvchi bilan yanada yaqin muloqotda bo'lish imkoniga ega bo'ladilar.

Moslashuvchanlik. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini har xil darajadagi o'quvchilar uchun moslashtirish mumkin.

Resurslarning qulayligi. Elektron materiallar va onlayn resurslar o'quvchilarga darslardan tashqari ham o'z bilimlarini oshirish imkonini beradi.

O'quvchilarning qiziqishini oshirish. Raqamli vositalar va interaktiv kontent ta'limni qiziqarli va qamrab oluvchi qilib, o'quvchilarning darslarga jalb etilishini oshiradi.

Qiyinchiliklari:

Texnik cheklovlar. Ba'zi maktablarda internet va kompyuterlarning yetishmasligi innovatsion texnologiyalarni to'liq qo'llashga to'sqinlik qilishi mumkin. Abduganiyeva Gulira'no Alijon kizi

O'qituvchilarning tayyorgarligi. Texnologiyalarni samarali qo'llash uchun o'qituvchilar o'zlarini doimiy ravishda yangilab borishlari, yangi dasturiy ta'minot va platformalarni o'rganishlari zarur.

Talabalarni nazorat qilish qiyinligi. Masofaviy va onlayn ta'lim jarayonida o'quvchilarni dars jarayonida to'liq nazorat qilish va ularning darsga e'tiborini jamlash qiyin bo'lishi mumkin. Bu platformalarda foydalanish imkoniyatidan

tashqari ta'lim jarayonida primitive o'quv jarayonidan kreativ o'quv jarayonini tashkil etishda <https://kahoot.com>, <https://quiz.com> viktorina saytlaridan gipermurojatlardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Xulosa

Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini jonlantiradi, ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi. Kelajakda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning yanada keng qo'llanilishi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishiga ishonch komil. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanishda texnik va tashkiliy masalalarni hal qilish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston"-2017 yil.14 yanvar.104 bet.
2. SH.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va lojjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston"2017 486 bet.
3. Adashboyev SH "Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar" .T.:2023yil O'quv uslubiy majmua.